O‘ZBEKISTON TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI XALQARO TIZIMLAR BILAN INTEGRATSIYALASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СИСТЕМАМИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

INTEGRATION OF UZBEKISTAN’S TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEM WITH INTERNATIONAL SYSTEMS: PROBLEMS AND SOLUTIONS







xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2026-yil 24-25 aprel

Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MARKETING KAFEDRASI

“O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar”

“Интеграция транспортно-логистической системы Узбекистана в международные системы: проблемы и решения”

“Integration of Uzbekistan’s Transport and Logistics System with International Systems: Problems and Solutions”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026 yil 24-25 aprel

SAMARQAND – 2026

UO‘K: 656:339.9
X 75
KBK: 65.37(5O‘zb)

O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026 yil 24-25 aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 815 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
D.H.Xolmamatov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professori.

Nashr uchun mas’ullar:
Sh.A.Musayeva – iqtisod fanlari nomzodi, professor
N.Babayev – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
B.Sh. Musayev – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Z.I.Usmanova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
D.I.Usmonova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
K.B.Suyunova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
N.B.Yahyoxonov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
S.K.Boyjigitov – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
M.B.Kalanova – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sahifalovchi: assistent T.A.Tilloyev

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislar iqtisodiyot va uning sohalarida logistika, uning markazlarini tashkil etish, O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash muhokama qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadiga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi vazifalarning yechimi aks ettirilgan, ya’ni: Iqtisodiyot tarmoqlarida transport-logistika tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari, O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalashning ilmiy-amaliy jihatlari, mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish, transport-logistika tizimlarida axborot va moliya oqimlarni tashkil qilish hamda boshqarish, turizm industriyasi va servis sohasida transport-logistika tizimi, soha va turdosh mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashda logistikaning roli.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Статьи и диссертации, включенные в данный сборник, направлены на обсуждение логистики в экономике и ее секторах, организации ее центров, интеграции транспортно-логистической системы Узбекистана с международными системами, а также на разработку научно обоснованных рекомендаций по результатам проведенных исследований, отражающих решение следующих задач, а именно: актуальные вопросы развития транспортно-логистической системы в секторах экономики, научно-практические аспекты интеграции транспортно-логистической системы Узбекистана с международными системами, использование зарубежного опыта в развитии транспортно-логистической системы в нашей стране, организация и управление информационно-финансовыми потоками в транспортно-логистических системах, роль логистики в транспортно-логистической системе в сфере туризма и услуг, роль логистики в подготовке кадров в отрасли и смежных специальностях.

Диссертации публикуются под редакцией авторов. Авторы несут ответственность за содержащиеся в них рисунки, факты, выводы и рекомендации. Некоторые из их мнений могут не совпадать с мнением организационной группы.

The articles and theses included in this collection are aimed at discussing logistics in the economy and its sectors, the organization of its centers, the integration of the transport and logistics system of Uzbekistan with international systems, and developing scientifically based recommendations as a result of the research conducted, which reflect the solution to the following tasks, namely: Current issues of developing the transport and logistics system in economic sectors, scientific and practical aspects of integrating the transport and logistics system of Uzbekistan with international systems, the use of foreign experience in developing the transport and logistics system in our country, the organization and management of information and financial flows in transport and logistics systems, the role of logistics in the transport and logistics system in the tourism industry and service sector, the role of logistics in training personnel in the sector and related specialties.

Theses are published under the editorship of the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations contained in them. Some of their opinions may not coincide with the views of the organizational group.

ISBN: 978-9910-225-64-2

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyot-matbaa ijodiyot bo‘limi, 2026.

tranzit davlat sifatida, balki **logistika** markazi sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda [4]. Asosiy infratuzilma obyektlari:

-Toshkent, Angren, Sirdaryo, Termez kabi yirik konteyner terminallari;

-Navoiy intermodal logistika markazi - xalqaro havo + avtomobil kombinatsiyasi uchun muhim;

-Toshkent – Xitoy (Sian) – Yevropa yo'nalishi orqali temiryo'l tashuvlari (Transkaspiy va Qozog'iston orqali).

Hozirgi kunda konteyner tashuvlar hajmi:

-2023 yilda O'zbekiston orqali o'tgan multimodal yuk tashuvlar hajmi 120 ming TEUdan oshdi;

-asosan temiryo'l orqali Xitoy – O'zbekiston – Eron yo'nalishida faol tashuvlar amalga oshirildi;

-O'zbekiston temiryo'llari yiliga 200 ming TEUgacha konteyner xizmatini ko'rsatish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonda multimodal konteyner tashuvlarining hozirgi holati barqaror rivojlanish bosqichida. Transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro integratsiyani kuchaytirish va xususiy investitsiyalarni jalb etish orqali mamlakat yaqin yillarda Markaziy Osiyoda multimodal logistikaning muhim markaziga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27 fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarori

3. G.A.Samatov, Logistika 1-2 qism. –T.;TAYLQEI, 2019, 650 b.

4. Yusufxonov Z.Y., Xakimov D. Problems and causes of cargo or container transportation by automobile transport. The scientific journal vehicles and roads, 2024. №3, 102-107

Ergashev J.B.
SamISI tayanch doktoranti

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI VA KORXONALAR TA'MINOT ZANJIRI INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY YONDASHUVLAR

Anotatsiya. Ushbu maqolada transport-logistika tizimi va korxonalar ta'minot zanjiri integratsiyasini takomillashtirish masalalari hamda bu jarayonda ilg'or xorijiy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida Supply chain management tizimining nazariy asoslari, transport-logistikaning ta'minot zanjiridagi o'rni va rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport-logistika, ta'minot zanjiri, integratsiya, logistika infratuzilmasi, xorijiy tajriba, raqamlashtirish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования интеграции транспортно-логистической системы и цепей поставок предприятий, а также возможности использования в этом процессе передовых зарубежных подходов. В ходе исследования были проанализированы теоретические основы системы управления цепочками поставок, роль транспортной логистики в цепочке поставок и опыт развитых стран. Также были выявлены существующие в нашей стране проблемы и разработаны практические предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: транспорт-логистика, цепочка поставок, интеграция, логистическая инфраструктура, зарубежный опыт, цифровизация.

Annotation. This article examines the issues of improving the integration of the transport and logistics system and the supply chain of enterprises, as well as the possibilities of using advanced foreign approaches in this process. During the study, the theoretical foundations of the Supply chain management system, the role of transport Logistics in the supply chain and the experience of developed countries were analyzed. Also, in our country, the existing problems have been identified and practical proposals and recommendations for their elimination have been developed.

Keywords: transport and logistics, supply chain, integration, logistics infrastructure, foreign experience, digitalization.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida transport-logistika tizimining samarali faoliyat yuritishi korxonalar raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalarni uzluksiz tovar bilan ta’minlash jarayonida transport va logistika tizimining uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy iqtisodiyotda Supply chain management konsepsiyasi asosida moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni yagona tizimda boshqarish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri o‘rtasidagi integratsiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimini modernizatsiya qilish va korxonalar ta’minot tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

Transport-logistika tizimi – bu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha yetkazib berish jarayonini tashkil etuvchi transport, ombor, axborot va boshqaruv elementlari majmuasidir. Ta’minot zanjiri esa xomashyo yetkazib beruvchilardan tortib, tayyor mahsulot iste’molchigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda transport-logistika tizimi asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritadi. Integratsiya deganda transport-logistika tizimi va ta’minot zanjirining yagona boshqaruv tizimida uyg‘unlashuvi tushuniladi. Bu esa xarajatlarni kamaytirish, yetkazib berish tezligini oshirish, zaxiralarni optimallashtirish, xizmat sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi. Rivojlangan davlatlarda transport-logistika tizimi va ta’minot zanjiri integratsiyasi yuqori darajada rivojlangan. Masalan, Germaniyada multimodal transport tizimi va yuqori darajadagi logistika infratuzilmasi mavjud. Xitoyda esa logistika jarayonlari raqamlashtirilgan va platforma iqtisodiyoti rivojlangan bo‘lsa, Singapurda logistika markazlari va port tizimi samaradorligi bilan ajralib turadi. Transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasi masalalari ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning ilmiy qarashlari ushbu sohada nazariy va amaliy asos yaratadi. Avvalo, logistika va ta’minot zanjiri tushunchalarining integratsiyalashuvi Supply chain management konsepsiyasi orqali izohlanadi. Xususan, logistika nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan Ronald H. Ballou logistika tizimini tovarlar harakati va saqlanishini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayoni sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, logistikaning asosiy maqsadi — minimal xarajatlar asosida yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishni ta’minlashdir.[1]

Shuningdek, Martin Christopher logistika tizimini korxonaning strategik ustunligini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholaydi. Uning fikricha, samarali logistika tizimi korxonaga tezkorlik, moslashuvchanlik va mijozlarga yo‘naltirilganlikni ta’minlaydi hamda ta’minot zanjirida qiymat yaratadi.[2]. O‘zbekiston olimlari transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasi masalalarini so‘nggi yillarda faol o‘rganib kelmoqdalar. Ularning ilmiy ishlari mamlakat iqtisodiyotida logistikaning o‘rni va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, T. Qo‘chqorovning ilmiy ishlarida transport va logistika tizimining iqtisodiy o‘sishga ta’siri tahlil qilinib, logistika samaradorligi ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini tezlashtirishi, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishi qayd etiladi.[3]

Dono Po‘latxo‘jaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda logistika tizimining sanoat korxonalaridagi o‘rni alohida ko‘rib chiqilib, logistika ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Unga ko‘ra, logistika tizimining uzluksiz ishlashi korxonalarda

tovar aylanmasi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.[4]. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan logistika va ta’minot zanjiri integratsiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimligi qayd etiladi. Jumladan, real vaqt rejimida monitoring qilish, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va axborot almashinuvi platformalari korxonalar ta’minot jarayonini optimallashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natija. Zamonaviy iqtisodiyotda ta’minot zanjiri faqat mahsulot yetkazib berish jarayoni bilan cheklanib qolmay, balki moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarning uzviy integratsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, Supply chain management tizimi korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy tajribani o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda transport-logistika tizimi yuqori darajada integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Masalan, Germaniyada multimodal transport tizimi orqali yuk tashish jarayonlari optimallashtirilgan bo‘lsa, Xitoyda raqamli logistika platformalari yordamida real vaqt rejimida ta’minot jarayonlari boshqariladi. Singapur esa logistika markazlari va port infratuzilmasining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilayotgan Just-in-time modeli korxonalarga ortiqcha zaxiralarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi logistika tizimlari ta’minot zanjirida shaffoflik va tezkorlikni ta’minlaydi. Mamlakatimizdagi holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, transport-logistika tizimida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, korxonalar ta’minot zanjirida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot almashinuvi tizimining sustligi va logistika jarayonlarida kechikishlar korxonalar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

- transport-logistika tizimi va ta’minot zanjiri o‘rtasidagi integratsiya darajasi korxonalar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
- xorijiy tajriba asosida raqamli logistika tizimlarini joriy etish ta’minot jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtiradi;
- integratsiyalashgan boshqaruv tizimi xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi;
- logistika infratuzilmasini rivojlantirish korxonalar ta’minot zanjiri barqarorligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasini takomillashtirishda xorijiy yondashuvlardan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ta’minot zanjiri faqat mahsulot yetkazib berish jarayoni emas, balki moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida qaralmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar tajribasida logistika va transport tizimlarining yuqori darajada integratsiyalashuvi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy logistika platformalari ta’minot jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini ta’minlamoqda. Mamlakatimiz sharoitida transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, korxonalar ta’minot zanjirida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini joriy etish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjirini yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga o‘tkazish hamda barcha jarayonlarni markazlashtirilgan platforma orqali boshqarish.

2. Logistika jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan Big Data va Sun’iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish orqali ta’minot jarayonlarini optimallashtirish.

3. Rivojlangan davlatlar tajribasida samarali qo‘llanilayotgan Just-in-time modelini mahalliy korxonalarda bosqichma-bosqich joriy etish orqali ortiqcha zaxiralarni kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirish.

4. Transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, multimodal transport tizimini rivojlantirish va logistika markazlari faoliyatini kengaytirish.

5. Korxonalar va logistika operatorlari o‘rtasida axborot almashinuvini real vaqt rejimida amalga oshirish uchun integratsiyalashgan elektron platformalarni yaratish.

6. Xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish va bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish.

Xulosa. Umuman olganda, mahalliy olimlarning yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda strategik ahamiyatga ega yo‘nalish hisoblanadi.Transport-logistika tizimini rivojlantirish va ta’minot zanjirini integratsiyalash korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishning muhim omilidir. Shu sababli, xorijiy tajriba bilan bir qatorda milliy ilmiy yondashuvlarni ham amaliyotga tatbiq etish dolzarb hisoblanadi.Tahlillar natijasida bir nechta takliflar ishlab chiqildi.Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi transport-logistika tizimi samaradorligini oshirish, korxonalar ta’minot zanjirini barqarorlashtirish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ronald H. Ballou. “Logistics and supply chain management: The importance of integration for business processes” Journal of Emerging Economies and Islamic Research December 2017

2. Martin Christopher. “Exploring the Role of Logistics in Enhancing Supply Chain Management Value” African Journal of Procurement Logistics & Supply Chain Management June 2025

3. Eshonqulov T.Q. “O‘zbekistonda transport va logistika sohasi rivojlanishining milliy iqtisdiyotga ta’siri” “Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari” vol.19 N.2 2026.

4. Dono Po‘latxo‘jayeva “O‘zbekiston sanoatida logistika tizimi” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy electron jurnali jild 3 N-1 2025.

Kalanova M.B.
Associate Professor of the Department of Marketing, SamIES
Narzullayev M.
student of SamIES

CENTRAL ASIAN LOGISTICS: INTEGRATION TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Abstract. This scientific article examines the formation of logistics potential in the Central Asian region, the development of transport and communication corridors, logistics integration processes between regional countries, and the impact of global and regional factors. Furthermore, ways to improve the efficiency of the regional logistics system and the impact of China's Belt and Road Initiative on regional logistics are analyzed, with development prospects and recommendations elaborated.

Keywords: Central Asia, logistics, transport corridors, regional integration, Belt and Road Initiative, container shipping, multimodal transport, border crossing points, cargo turnover, network infrastructure, Uzbekistan, Kazakhstan, transport logistics.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается формирование логистического потенциала региона Центральной Азии, развитие транспортно-коммуникационных коридоров, процессы логистической интеграции между странами региона, а также влияние

Jamolova A.	Kichik tadbirkorlikda raqobat muhitini yaxshilash va institutsional to`siqlarni bartaraf etish yo‘llari (Germaniya va Singapur tajribasi misolida)	384
Маматкулова Ш.Ж.	Экономические аспекты процесса интеграции транспортно-логистической системы Узбекистана с международными системами	387
Yunusov X.A. Meliqo‘zuyev J.X.	Logistika muammolari va ularning brend obr o‘siga salbiy ta’siri	390
Yahyoxonov N.B. Mustafaqulov A.U.	Mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirish xorij tajribasidan foydalanish	392
Babayev N. O‘ktamov S.S.	Mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish	395
Boyjigitov S.K. Omonboyev J.U.	Ishlab chiqarish korxonalarida transport-logistika tizimini rivojlantirishning xorij tajribalari	397
Pardayeva K.A.	Tashish va saqlash xizmatlarini rivojlantirishda Osiyo mamlakatlari tajribasi	400
Xolmamatov D.H. Raxmonkulov R.R.	Xarid logistikasida transport-logistika tizimini rivojlantirishning xorij tajribalari	403
Rajabov O.M. Nurullayeva D.	Mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirishda Yevropa ittifoqi davlatlari tajribasidan foydalanish	405
Yunusov X.A. Razzaqova N.	Mamlakatimizda transport-logistika tizimini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish	409
Musayev B.Sh. Rustamov J.M.	Ombor logistika xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	413
Abduxoliqova K.A. Abdullayev Sh.Sh.	Jahon iqtisodiyotining globallashuvi xalqaro logistikaning shakllanish omili sifatida	415
Musurmonova M. Saidrizoyeva N.S.	G‘arbiy Yevropa integratsion jarayonlarining zamonaviy tendensiyalari	417
Sharopova M.A. Shermatova N.D.	Xalqaro ekspeditorlik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari	419
Yahyoxonov N.B. Shukurov N.	Xalqaro brend yaratish va uni rivojlantirish strategiyalari	422
Yunusov X.A. Turdiqulov M.	Xalqaro marketing muhiti va uning xususiyatlari	427
Убайдуллаев Х.Б.	Состояние и анализ развития инфраструктуры транспортных услуг в Узбекистане	433
Yahyoxonov N.B. Umurzoqov M.	Xalqaro marketingda mahsulot hayotiylik davri va innovatsion strategiyalar	436
Пардаев Г.Я. Худайбердиев К.Ч.	Сравнительный анализ видов транспорта в международной логистике	443
Yusufxonov Z.Y.	O‘zbekistonda xalqaro transport koridorlaridan foydalanishning dolzarb masalalari	446
Ergashev J.B.	Transport-logistika tizimi va korxonalar ta’minot zanjiri integratsiyasini takomillashtirishda xorijiy yondashuvlar	449
Kalanova M.B. Narzullayev M.	Central Asian logistics: integration trends and development prospects	452
Tilloyev T.A. Tuxtamurodov E.	Foreign experiences in developing a transport and logistics system in manufacturing enterprises	456

O‘zbekiston transport-logistika tizimini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash: muammolar va yechimlar

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

2026-yil 24-25 aprel kunlari

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN:978-9910-225-64-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ.** nashriyoti,
Samarqand-2026

2490

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 50,62
Buyurtma № 0058A/26. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.